

KASBIY TANLOVDAN QONIQQANLIKNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK TRENINGLARDAN FOYDALANISH

A.Xasanboyev - NamDPI magistranti

Annotatsiya: Bolalarga, pedagogik mehnatga mehr qo'yish, bolalar jamoasi bilan ishlash va birga bo'lishga moyillik muvaffaqiyatli ta'lim-tarbiya ishining hamda kasbiy tanlovdan qoniqqanlikning muhim sharti xisoblanadi.

Kalit so'zlar: Pedagog, moyillik, yoshlik, psixologik, ijtimoiylashuv, tamoyil, trening, shaxs, shaxsiy rivojlanish, individuallik, refleksiya, qobiliyat, motiv.

Аннотация: Основным условием удовлетворения от профессионального выбора и учебно-воспитательной работы является проявление чувства любви к педагогическому труду, к детям и работе с детский коллективом.

Ключевые слова: Педагог, склонность, Юность, психология, социализация, принцип, обучение, личность, личностное развитие, индивидуальность, рефлексия, способности, мотив.

Annotation: To love children ,pedagogical work, the inclination of being working together with children are considered important necessity of successful education and the satisfaction of occupation choice.

Keywords: Educator, predisposition, youth, psychological, socialization, principle, training, personality, personal development, individuality, reflection, ability, motiv.

Faqat rivojlangan va taraqqiy etgan jamiyatgina yosh avlodni asrab-avaylab, uning har tomonlama barkamol inson bo'lib etishmog'i uchun barcha-moddiy, ma'naviy va maishiy shart-sharoitlarni yaratib bera oladi. Ana shunday holdagina yosh avlod o'z jamiyatini va o'z yurtini yuksaltirish uchun qudratli omil bo'lib xizmat qila oladi. Yosh avlod qadrlanmagan ijtimoiy jamiyat hech qachon mukammal va tez rivojlana olmaydi. Sog'lom, barkamol avlod va ta'lim masalasi -bu ikki masalani bir-biridan ajratib qarash mumkin emas. Negaki, kelajakni ishonib topshirish uchun yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash masalasini hal qilish lozim, ya'ni uni har tomonlama sog'lom qilib voyaga etkazish, jumladan, barcha dunyoviy va diniy bilimlardan to'la boxabar bo'lishi, o'zida mavjud bo'lgan bilimlarni hayotga tatbiq eta oladigan bo'lib shakllantirilishi uchun jon kuydirish bugungi kun talabi bo'lishi kerak.

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim va tarbiyaning bosh maqsadi va islohat talablaridan kelib hamda prezidentimizning ta'lim soxasini yanada rivojlantirish maqsadida olib borayotgan sa'y xarakatlaridan kelib chiqib chiqib sayqallanib yanada rivojlanib bormoqda. Barkamol avlodni shakllantirishning pedagogik, psixologik, ma'naviy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy omillari pedagog-o'qituvchilarning

raqobatbardoshlik, kasbiy malaka va pedagogik mahoratini kuchaytirishni davr taqozosi qilib qo'yimoqda.

Bolalarga, pedagogik mehnatga mehr qo'yish, bolalar jamoasi bilan ishlash va birga bo'lishga moyillik muvaffaqiyatli ta'lim-tarbiya ishining asosiy sharti hisoblanadi. O'qituvchining bolalarga mehr qo'yishi, ular bilan pedagoglarcha muomalada bo'lishdan, bolalarning o'ziga xos dunyosiga kirib borish imkoniyatidan chuqur qoniqish hissida ijobiy ruxda tarbiyalash bilan birga, ularga nisbatan bo'shanglik, soxta mulozamatga, marhamatlilik va ko'ngilchanlikka aylanib ketmaydigan salbiy sifatlarni shakllantirishdan voz kechish hamda diqqat-e'tibor va xushyorlikdan iborat do'stona munosabatni, bolalar bilan bo'ladigan munosabatning sodda va samimiy bo'lishini aloxida yodda tutish lozim.

Afsuski, ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan hamma o'qituvchilarda ham shunday sifatlari bor deb bo'lmaydi. Ba'zi o'qituvchilar pedagoglik kasbini tasodifan tanlaganliklarini, maktab bilan bolalarni yoqtirmasliklarini, maktabda ishlash malol kelib, o'z qilgan ishlaridan ko'ngillari to'lmasliklarini yashirib o'tirmaydilar. Ayrim o'qituvchilar umuman maktabda ishlashga yaroqsizdirlar: ular zahar, serjahl, berahm, samimiy emaslar, o'zlarida bolalarga nisbatan mudhish g'araz borligini sezadilar. Shuni ta'kidlash joizki, o'qituvchilar juda ham kuzatuvchan bo'lib, o'qituvchining o'z ishini haqiqatdan sevishini yoki o'z burchini qiynalib bajarayotganligini ziyraklik bilan payqab oladilar.

Kishining faoliyatini samarali bo'lishi ko'p jixatdan uning asbiy tanlovidan qoniqqanligi bilan bog'liq. Jumladan pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi o'qituvchining kasbiy tanlovidan qonniqanligi bilan ham belgilanadi. Agar bugun o'qituvchilik kasbini tanlagan kishilar o'z tanlovlaridan baxtiyor ekanliklarini xis etsalar, ish faoliyatlariga xotirjam va sidqidildan yondoshadilar. Bu borada kasbiy tanlovdan qoniqqanlikni o'rganishga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Kishining mehnatdan qoniqishiga ta'sir etuvchi shaxsiy sifatlari qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin.

1) Yoshning ulg'ayib borishi bilan kishida mehnatdan qoniqish xissi rivojlana boshlaydi;

2) Ish xaqining ortib borishi, tegishli rag'batlar va pedagogni qo'llab quvvatlanishi kasbga nisbatan mehrni shakllantirishga xizmat qila boshlaydi;

3) Jamoada adolatlilik tamoyiliga amal qilinganligi, barchaga mehnatning to'g'ri taqsimlanganligi pedagogda kasbiy tanlovdan qoniqqanlikni shakllantiradi.

4) Pedagogik maxoratni egallash jarayonidagi kognitiv qobiliyatlar – mehnat faoliyatining intellekt darajasiga mos kelishiga va bu o'z-o'zidan kasbiy qoniqishga olib keladi.

5) Kishining sog'lomligi va kayfiyatning ko'tarinki bo'lishi pedagogik faoliyatda yuqori natijalarni kafolatlaydi.

Bo'lg'usi pedagoglarda kasbiy tanlovdan qoniqqanlikni aniqlash maqsadida psixologik treninglar bugungi kunda yaxshi samara beruvchi omillar qatoridan joy olgan. Bugun zamonaviy psixologik adabiyotlarda trening atamasi juda ko'p ishlatilmoqda. Trening so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "mashq qilish", "takrorlash" ma'nolarini bildiradi. TRENING – shaxsda mavjud bo'lgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadida turli xil o'yin va mashqlar orqali o'tkaziladigan mashg'ulot hisoblanadi.

Bo'lg'usi pedagoglarda tanlovdan qoniqqanlikni shakllantirish maqsadida psixologik treninglardan foydalanish yaxshi samara beradi. Quyida muloqotchanlikni, tashkilotchilikni va kognitiv jarayonlarni va diqqat e'tiborni shakllantirishga yordam beradigan psixologik treninglardan namunalar berilgan bo'lib, bu mashqlar kasbiy tanlovning nechog'li to'g'ri tushunishlari uchun imkoniyat yaratadi.

“Diqqatlilik”

Mashq maqsadi: pedagoglarda kasbiy muhim bilish jarayonlaridan ixtiyoriy diqqat va ixtiyoriy esda olib qolishni rivojlantirish.

Mashq mazmuni: Mashqda bir pedagog tanlanadi. Unga galma-galdan sonlar aytiladi. U bu sonlarni qaytarishi kerak. Hammasini qaytarib bo'lgach, gal boshqa ishtirokchiga o'tadi. Shu tarzda pedagoglarda ixtiyoriy diqqat va ixtiyoriy esda olib qolish rivojlantiriladi.

Zamonaviy pedagogning shaxs xislatlari

Maqsadi: pedagog uchun zarur kasbiy muhim xislatlar bilan tanishish.

Mashq mazmuni:

Murabbiy: Bugungi mashg'ulotda biz sizlar bilan “Aqliy hujum” o'tkazamiz. Buning uchun pedagog faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlaydigan xislatlarni aytamiz. Qani marhamat boshladik!”

Pedagoglar aytgan fikrlar yozib boriladi. Mashq oxirida aytilgan fikrlarning, pedagoglarning o'z kasblari uchun zarur bo'ladigan psixologik xislatlardan qanchalik xabardorligi tekshiriladi. Buning uchun ularga quyidagi xislatlar ko'rsatiladi. Pedagoglar o'zlari bilgan kasbiy muhim xislatlar bilan birga yangi xislatlar haqida ham tasavvurga ega bo'lib, kasb haqida tasavurlari, kasbiy yo'nalganligi ortadi.

“Shunaqa bo'lganda, nima bo'lardi?”

Maqsadi: ijodiy xayolni rivojlantirish.

Mashq mazmuni pedagoglardan kimdir eng fantastik hodisani gapirib beradi, boshqalar esa undan ham o'tadigan vaziyatni o'ylab topishi kerak:

Masalan:

1. “Agar har bir odam tug'ilishi bilan boshqa odamning xayollarini o'qish xususiyatiga ega bo'lsa, erdagi hayot qanaqa o'zgaradi”.

2. “Agarda butun dunyoda tortishish kuchi yo’qolib, odamlar va narsalar o’z hajmini yo’qotsa, bunda nima bo’lardi?”.

3. “Agarda hamma odamlar gapirish xususiyatini yo’qotsalar, bunda nima bo’lardi?”.

4. “Agar kuchuklar gapirishni o’rganib olsalar nima bo’lardi?”....

“Mening hamkasbim mashqi”

Mashq maqsadi: ishda o’qituvchilarning hamkasblari bilan samarali muloqot vositalarini rivojlantirish, psixolog guruhga keyingi vaziyatni o’ynashni taklif qiladi, bir o’qituvchi hamkasblaridan bir ikki kunga o’rnini bildirmaslikni so’raydi. O’yindan so’ng ushbu vaziyat yuzasidan muhokama qilinadi o’qituvchi iltimosini bayon etish uchun qanday kommunikativ vositalaridan foydalaniladi. Nima uchun bir o’qituvchi unga ha deb javob berdi boshqasi esa yo’q.

Har bir qatnashchi o’zining tajribasidagi shunday vaziyatlarni eslashi mumkin. Bu vaziyatga psixolog aralashmaydi, faqatgina yordam berishi mumkin. Mashq so’ngida ushbu vaziyatda «O’zingizni qanday tutishingiz kerak, hamkasblaringiz sizga chin dildan yordam berishlari uchun vaziyat muhokama qilinadi».

“Mening kasbiy rolim”

Mashq maqsadi: o’qituvchi bilish lozim bo’lgan sinf bilan muloqotini va ichki holatlarini samarali hal etish.

Guruh aylanma bo’lib o’tiradi va psixolog har bir qatnashchiga kasbiy kommunikativ sifatlarni ko’rsatuvchi rol yozilgan kartochkalarni tarqatadi. Kartochkalarda quyidagi so’zlar yozilgan bo’lishi mumkin, «yordamchi ona, tarbiyachi, sardor, ideal o’qituvchi bilan ota – onalar o’rtasidagi vositachi do’st o’yin intellektual sudya kuzatuvchi dars beruvchi».

Har bir qatnashchi o’zining pozitsion roli bayon etilgan kartochkasini oldi va unga ushbu pozitsiyasida tutgan o’rnini aytadi. Berilgan rol pozitsiyasiga qarshi chiqqanda kichik o’quvchilar bilan muloqotda pozitsiyani bayon etish lozim. Vaziyat muhokama qilinadi, ayniqsa kichik maktab yoshidagi o’quvchilar oldida tutgan o’rni haqida alohida to’xtalinadi. Muhokama guruh ichida aylana tarzida yoki navbat bilan fikrni bildirishga mumkin. Guruh muhokamasida psixolog o’qituvchilar diqqatini keyingi vaziyatga; har o’qituvchining shaxsiy ichki rolini o’quvchilar bilan munosabatini ular bilan muloqotda samimiy va ochiq ko’ngil bo’lishi lozimligini o’qtirishga harakat qilishi lozim.

“Mening birinchi o’qituvchim”

Mashq maqsadi: o’qituvchilarda pedagogik refleksiya qobiliyatini rivojlantirish shaxsiy tarbiyaviy ta’sir oqibatlarini baholash va tahlil qilish. Psixolog guruh ishtirokchilariga o’zining birinchi o’qituvchisi bolalarga qanday munosabatda bo’lgan darsni qanday tushuntirilganligi, haqida gapirib berishni suraydi. Umumiy muhokamada psixolog guruh ishtirokchilari, e’tiborini o’z faoliyatida birinchi

o'qituvchisining uslubi va muhokamasini takrorlashga yoki boshqalarga munosabatda adolatli va muloyimroq nimadadir unga nisbatan yaxshi bo'linga intilishga qaratish lozim. O'qituvchilarda shaxsiy bolalik xotiralarini qayta esga tushirish negizida bolalarni his qila olishni rejalashtirish muhim.

“Intonatsiya” (ohang) mashqi

Mashq maqsadi: o'qituvchilarning kommunikativ imkoniyatlari diapozonini kengaytirish.

Guruhning har bir a'zosiga qandaydir, o'quvchiga qaratilgan maqtov so'zlarni aytilish taklif qilinadi. Masalan «balli! Senda hamma narsa yaxshi bo'ladi» kabi so'zlarni aytilish mumkin. Bunda aytilgan so'zlar ishtirokchi tomonidan 5 – marta turli ohangda yaxshi aytilganini muhokama qiladi. Psixolog har bir o'qituvchiga o'quvchilar bilan muloqot uchun ifodalibroq ohangni topishga yordamlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziev E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): Ped. in-tlari va un-tlarning talabalari uchun o'quv qo'l. – Toshkent: O'qituvchi, 1994..
2. G'oziev E. O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent: O'qituvchi, 1988.
3. Н.Исмоилова, Д.Абдуллаева Тренинг ўтиш методикаси (методик қўлланма) Toshkent: TDPU 2009
4. Oribboyeva, D. D. (2020). SOCIAL COMPETENCE AS AN INTEGRAL PART OF THE TEACHER'S PROFESSIONAL MATURITY. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(11), 347-353.
5. Д.Д Ориббоева [The influence of social competens on professional choice](#) - *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute* 2019 y 256-261
6. Oribboyeva, D. D. (2020). Social competence as an integral part of the teacher's professional maturity. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(11), 347-353.
7. 3 Ikromaliyevna, K. N., Muhammedovich, B. M., & Dadamirzayevna, O. D. (2019). Eastern thinkers about the phenomena of self-awareness. *Journal of Critical Reviews*, 7(2), 2020.
8. 4 Ориббоева, Д. Д. (2019). THE INFLUENCE OF SOCIAL COMPETENS ON PROFESSIONAL CHOICE. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(9), 256-261.
9. 5 Oribboyeva, D. D., & Ikromova, D. (2024). Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasining o'ziga xosligi, aqli zaiflik turlari. *Science and Education*, 5(1), 287-291.

10. 6 Oribboyeva, D. D. (2020). SOCIAL COMPETENCE AS AN INTEGRAL PART OF THE TEACHER'S PROFESSIONAL MATURITY. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(11), 347-353.
11. Jo'Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. *Science and Education*, 5(3), 490-494.
12. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. *Science and Education*, 5(2), 513-519.
13. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.
14. 2 Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
15. 3 Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. *Экономика и социум*, (8 (87)), 42-45.
16. 4 Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). USING CASE STADE TECHNOLOGY IN LEGAL EDUCATION FOR TEENAGERS. *Экономика и социум*, (8), 42-45.
17. 5 Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagogik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.